

**BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARI SO`Z BOYLIGINI OSHIRISH ISHINING**  
**MAZMUNI VA VAZIFALARI**  
Rajabova Xurshidabonu G'olib qizi  
Bux DPI II bosqich magistri

**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarini o'quv lug'atlari asosida tashkil qilish masalasi ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** O'quvchi, o'qituvchi, o'zining nutqi, talaffuz, uslubiy, stilistik xatolar, pedagogik jarayonlar, "maydon", "Kamron", "ko'l", "sara", "savat" va h.

Nutq har doim insonning umumiy madaniyati, uning intellekti, rivojlanish darajasining ko'rsatkichi bo'lib kelgan. Shuning uchun ham nutq madaniyatini egallash, uni takomillashtirish maktab yillaridan boshlanib, universitetda o'qish davrida tizimli ravishda davom etadi.

Boshlang'ich sinf darslari pedagogik jarayonlar davomida bularga qat'iy rioxaya qilish kerakligi haqida fikrlar va mulohazalar yuritilgan hamda quyidagi talablar berilgan:

- o'qituvchining nutqi ravon bo'lishi;
- o'qituvchining fikrlar bayoni aniq, tushunarli bo'lishi;
- nutq jarayonida qo'l, ko'z, yuz imo-ishoralaridan foydalanishda ularning uzbek (bog'liq)ligiga erishish;
- nutq orqali o'quvchilar ongi, qalbi, hatti - harakatiga pedagogik ta'sir ko'rsatish;
- nutq talaffuzi orqali o'quvchi bilan muloqotga kirishish jarayonida ularning o'ziga xos xususiyatlarini (pedo-psixofiziologik) hisobga olish;
- o'qituvchi nutqining talaffuzida ahloqiy normalarning shakllangan bo'lishi;
- o'qituvchi shaxsiga xos va mos tarzda o'quvchilar bilan muloqotga kirishishi;
- o'qituvchi o'zining nutq talaffuzida uslubiy, stilistik xatolarga yo'l qo'ymasligi;
- o'qituvchining nutq qobiliyati rivojlangan bo'lishi;
- o'qituvchi dars jarayonida mavzuni tushuntirishda o'quvchilarga ovoz monotonidan ijobiy foydalanib muloqotga kirishishi;
- o'quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ularni tarbiyalab borish, ongi, xulqida insoniy fazilatlarni shakllantirish, ahloqiy normalarni qaror toptirishi, muloqot jarayonida badiiy so'z san'atiga qat'iy rioxaya qilishi;
- o'qituvchi notiqlik san'atini egallab borishi va so'ngra muloqotga kirishishi, muntazam ravishda nutq talaffuzini rivojlantiruvchi mashqlar bilan shug'ullanib borishi;
- o'qituvchi o'zining nutq talaffuzida pauza, intonatsiyalardan oqilona foydalanishi;

muloqot jarayonida o‘qituvchi to‘liq va to‘g‘ri fikrlay olishga o‘rganishiga bog‘liq va boshqalar.<sup>1</sup> Ijtimoiy tafakkurni yuksaltirishda lug‘atlarning roli beqiyosligi jahon tajribasida o‘zini to‘la oqlagan haqiqat. Insonning mustaqil fikrlash, ong mahsulini to‘g‘ri va ravon bayon qilish qobiliyati, ijodiy tafakkurini o‘stirish harakatlari, odatda, yoshligidan boshlanadi. Bunda ta’limiy vositalar sirasida lug‘atlar alohida ahamiyat va maqomga ega. Shu ma’noda O‘zbekistonda kichik va o‘rta yoshdagi ta’lim oluvchilarga mo‘ljallangan maxsus lug‘atlar yaratilganmi, o‘quvchilarining qo‘lida qanday lug‘atlar bor, umuman lug‘atchilikning ahvoli qay darajada, degan savolning qo‘yilishi muqarrar va o‘rinli.

O‘zbek tili darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma savodxonligini o‘stirish hamda tushunib o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirishdan iborat. Biz deyarli har bir darsimizda o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirib borar ekanmiz, shu asnoda ularni mazmunli gaplar tuzishga o‘rgatib ham borishimiz hamda shu asnoda mustaqil fikrlash qobilishatini ham yanada rivojlantirish metodikamizning bosh maqsadidir. Bizga ma'lumki, o‘zbek tilidagi barcha so‘zlar ham aytishi bo‘yicha yozilavermaydi va o‘zbek adabiy tilidagi so‘zlar bilan shevaga oid so‘zlar orasida ham farqlar kuzatiladi. Biz dars mobaynida o‘quvchilarga so‘zlarni sof adabiy tilda o‘rgatamiz. Shuning uchun ham dars davomida turli rasmlardan, video va audiolardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun turli rasmlardan va videolardan foydalanish mumkin.<sup>2</sup> Masalan, dars davomida rasmi diktantlar olish jarayonida o‘quvchilarning yozma savodxonligining oshishiga yordam bersak, yoshiga mos turli multfilmlar namoyishi orqali ularning fikrlash doirasining kengayishiga va og‘zaki nutqining yanada rivojlanishiga yordam berishimiz mumkin. Agar o‘quvchilarga so‘zlarning yozilishi va talaffuzini bir vaqtning o‘zida, o‘zlariga amaliy mashg‘ulot tarzida ishlatis, o‘rgatib borsak ham vaqtidan yutamiz va xotirasida yaxshi saqlanib qolishiga yordam beradi.

Metodikamizning bosh maqsadlaridan yana biri shuki, o‘quvchilarni mazmunli gaplar tuzishga o‘rgatish ham dolzarb hisoblanadi. Bunda qiziqarli qilib o‘rgatish va har tomonlama fikrlashini o‘stirib borishda o‘qituvchilardan katta mehnat talab qilinadi. Bunday hollarda quyidagi o‘quv lug‘atlaridan foydalanish mumkin. Bu o‘rinda o‘quvchilarga gaplar tuzish topshirig‘i beriladi. Shundan keyin o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan harflardan birini tanlab oladilar. Gap tuzishning sharti shundan iboratki, o‘quvchilarning tuzgan gaplaridagi har bir so‘z tanlab olingen harfdan boshlanishi kerak bo‘ladi. Bu o‘yinni dastlab guruhlarda, keyinchalik yakka holda ishlatisch mumkin. Masalan, Kamron katta ko‘lda ko‘m-ko‘k kitlarni ko‘rdi. Saida sariq sabzilarning saralarini sariq savatga soldi. Maydon markazidagi mehmonlar matematik masalalarni ma’qulladi. Ko‘rib turganimizdek gaplardagi

<sup>1</sup> Raxmonova Z.U.” Ilmiy adabiyotlarda nutq o‘stirish metodikasi masalasining yoritilishi”. Xalqaro anjuman materialalri. Nukus.2022. B-806-807.

<sup>2</sup> Qurbanova Z.S.”O‘quvchilarning og‘zaki va yozma savodxonligini oshirishda lug‘atlarning o‘rnii”. Xalqaro anjuman materiallari. Nukus. 2022. B-845-847.

har bir so‘z bir xil harf bilan boshlangan. Boshida bu o‘quvchilarda biroz qiyinchilik tug‘dirishi mumkin, lekin guruh bilan ishlash jarayonida birgalikda ishlash texnologiyasi yordamida qiziqarli tuyuladi va keyinchalik yakka holda ishlatish qiyinchiliksiz kechadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida “maydon”, “Kamron”, “ko‘l”, “sara”, “savat” so‘zlariga izoh izlash ehtiyoji tug‘iladi. Shu lahzada lug‘atlar ma’naviy ehtiyoj sifatida ta’lim- tarbiya jarayonida o‘quvchilarning nutq boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Ma’lumki, har qanday lug‘atda nimanidir o‘rgatish maqsadi yotadi. Ammo bevosita maktab uchun yaratilgan lug‘atlarga o‘quv lug‘ati toifasiga kiritiladi va ular maxsus mezonlar asosida tuziladi. O‘quv lug‘atlari foydalanuvchilarning yoshi, ruhiy-fiziologik holati, bilim darajasi, dunyoqarashiga asoslanadi. Bunday lug‘atlarda so‘zlikni qamrab olish imkoniyati chegaralangan bo‘ladi, ya’ni so‘zlik qamrovi o‘quv jarayoni ehtiyojlaridan kelib chiqadi. O‘quv lug‘ati shu tipdagи katta lug‘atlarni qisqartirish yo‘li bilan yaratilmaydi, u o‘quvchilarning mavjud maktab darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari va boshqa materiallardagi ma’lumotlarni mustaqil o‘zlashtirishiga ko‘mak beradigan tushunchalar asosida tuziladi.

M.A.Skopinaning ma’lumot berishicha, ilk marta “o‘quv lug‘ati” termini rus lug‘atchiligidan E.D.Polivanovning 1926 yilda yaratilgan “Qisqacha ruscha-o‘zbekcha lug‘at”ining so‘zboshisida ishlatiladi. Muallif o‘z lug‘atini xarakterlar ekan, “hajmiga ko‘ra spravochnik lug‘at deb bo‘lmaydi, uni o‘quv lug‘atlari toifasiga kiritish o‘rinli”, deydi.

“O‘quv lug‘atchiligi” termining ilk ta’rifi L.A.Novikovga tegishli bo‘lib, uning o‘quv lug‘atchiligi vazifalari chegarasi, uning muammolari va o‘quv lug‘atlari tiplari aniqlashtirilgan “O‘quv leksikografiyasini va uning vazifalari” deb nomlangan maqolasida uchraydi: “Akademik leksikografiya bilan taqqoslaganda o‘quv leksikografiyasini hajman kichik va katta ta’limiy maqsadga yo‘naltirilgan leksikografiya”<sup>3</sup>

O‘quv leksikografiyasini xarakterlaydigan ushbu mezonlar P.N.Denisovning “o‘quv lug‘ati” terminiga bergen ta’rifida o‘z aksini topdi: “O‘quv lug‘ati – so‘zligi ma’lum bir mezon asosida tartiblangan, o‘quv-uslubiy talablarga javob beradigan, odatda, hajman kichik bo‘lgan, ma’lumotni tezkor va qulay taqdim etadigan kitob”<sup>4</sup>

O‘quv lug‘atlari, odatda, o‘quv leksikografiyasining tadqiq ob’ekti hisoblanadi. O‘rganish ob’ekti – o‘quv lug‘atining tafsifiy belgilari o‘quv leksikografiyasining asosiy vazifalarini belgilab beradi. O‘quv lug‘atchiligi o‘tgan asrning 70-yillarida leksikografiyaning alohida tarmog‘i sifatida ajralib chiqdi va o‘ziga xos nazariy asoslari, maqsadi va vazifalariga ega bo‘lgan lingvometodik yo‘nalish sifatida taniladi. L.G.Sayaxov ushbu yo‘nalishning o‘ziga xos belgilari xususiga to‘xtalar ekan, “Uning asosiy rivojlanish yo‘nalishlari, bir tomonidan, o‘quv jarayoni – ta’limning umumiy maqsadi, ikkinchi tomonidan – lingvistik maqsadlar,

<sup>3</sup> Скопина М.А. Об одном существенном типологическом признаке учебного словаря // Теоретические основы разработки словарей учебного типа: Сб. научных трудов. / Под ред. Н.М. Шанского, Е.А. Быстровой. – М: НИИОП АПН СССР, 1981.– С. 58-70.

<sup>4</sup> Денисов П.Н. Лексика русского языка и принципы ее описания. — М: Русский язык, 1993. С. 216-217.

uning rivojlanish mantig‘i bilan belgilanadi”<sup>5</sup>, – deydi. Aslida ham o‘quv lug‘atchiligi taraqqiyoti faqat leksikografiyaning emas, lingvodidaktikaning ham taraqqiyotiga bog‘liq. Shu bois keyinchalik o‘quv lug‘atlariga lingvodidaktik vosita sifatida qarash an’anaga aylandi.

### **Foydalaniman adabiyotlar:**

1. Raxmonova Z.U.” Ilmiy adabiyotlarda nutq o’stirish metodikasi masalasining yoritilishi”. Xalqaro anjuman materialalri. Nukus.2022. B-806-807.
- 2.Qurbanova Z.S.”O’quvchilarning og’zaki va yozma savodxonligini oshirishda lug’atlarning o’rni”. Xalqaro anjuman materiallari. Nukus. 2022. B-845-847.
- 3.Скопина М.А. Об одном существенном типологическом признаке учебного словаря // Теоретические основы разработки словарей учебного типа: Сб. научных трудов. / Под ред. Н.М. Шанского, Е.А. Быстровой. – М: НИИОП АПН СССР, 1981.– С. 58-70.
- 4.Денисов П.Н. Лексика русского языка и принципы ее описания. — М: Русский язык, 1993. С. 216-217.
- 5.Саяхова Л.Г. Словари в культурологической концепции обучения языкам // Словарь в системе филологического образования: Материалы Всероссийской научно-практической конференции 26-27 октября 1999 г. / Отв. ред. Л.Г. Саяхова, Т.Н. Дорожкина. – Уфа, 2001. –С. 22-25.
- 6..O’ZBEK NASRIDA PARALINGVISTIKA ORQALI KULGI UYG’OTISH ESTETIKASI. X X Axmadorovich Conferencea, 75-81
- 7.O’ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA MA’RIFIY SHE’RLAR VA ULARNI O’RGANISHNING AXLOQIY- TA’LIMIY AHAMIYATI.X A Xaitov E Conference Zone ,9-12.
- 8..HANGOMA SHE’RLARDA KULGINING O’ZIGA XOS IFODASI X A Xaitov,SS qizi Ibodullayevna GOLDEN BRAIN 1(3),297-301
- 9.ZAMONAVIY O’ZBEK ROMANLARI TARAQQIYOTIGA XALQ MAYDON KULGI SAN’ATINING TA’SIRI X A Xaitov,MN Izzatullayeva GOLDEN BRAIN 1(3), 357-361
- 10.BADIY ASARLARDA KULGI MADANIYATI MASALASI X A Xaitov, GZ qizi Murodova GOLDEN BRAIN 1(3),267-271
- 11.FACTORS OF INTEGRATED ORGANIZATION OF SMALL TEXT LECTURES IN PRIMARY GRADES K K Madovich, SG Khayrullayevna E Conference Zone, 44-49
- 12.THE CONCERT OF READING, SPECIAL FEATURES OF CHILDREN’S READING KK Akhmadovich, SG Badriddinovna e Conference Zone, 28-33.
- 13.THE AESTHETIC VALUE OF LINGUISTIK FLORIONYMS IN WORKS OF ART IN AROUSING LAUGHTER KK Akhmadovich, NO Alisherovna Conferencea 59-63.

<sup>5</sup> Саяхова Л.Г. Словари в культурологической концепции обучения языкам // Словарь в системе филологического образования: Материалы Всероссийской научно-практической конференции 26-27 октября 1999 г. / Отв. ред. Л.Г. Саяхова, Т.Н. Дорожкина. – Уфа, 2001. –С. 22-25.

- 14.O'zbek adabiyotida hajviya va hangomalarga xos badiiy-kompozitsion xususiyatlar X Hamza ЦЕНТР НАУЧНИХ ПУБЛИКАТЦИЙ (buxdu. uz)28(28)
- 15.ХАЛҚ КУЛГИСИ АСОСИДА ЯРАТИЛГАН ЁЗМА АСАРЛАРДА САЖЬНИНГ ҚҮЛЛАНИШИ X Hamza ЦЕНТР НАУЧНИХ ПУБЛИКАТЦИЙ (buxdu. uz)28(28)
- 16.HISTORICAL GENESIS OF UZBEK CHILDREN'S READING, PRINCIPLES OF DEVELOPMENT AND AESTHETIC EXPRESSION OF NATIONALITY IN THEM KK Akhmadovich, NO Alisherovna Conferencea, 90-94.
- 17.THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL INTEGRATIONS IN THE FORMATION OF INDEPENDENT WORK IN PRIMERY GRADES KK Akhmadovich, NS Ubaydullayevna Conferencea, 66-75.